SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son S/8
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**М У Н Д А Р И Ж А**

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ


*Намазова Умида Нормуродовна*
ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)........ 10-15

*Эрназаров Туйгун Раджабович*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ........ 16-21

*Хужаниязов Уктам Ешбаевич*
“ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ........ 22-27

*Шаимкулов Азамат Холмуратович*
ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ........ 28-38

*Муродов Ҳалим Салимович*
ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР........ 39-46

*Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН........ 47-51

*Shonazarova Nargiza*
TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR........ 52-57

*Axmadova Nafisa Axmad qizi*
OʻZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI........ 58-64

*Qodirova Ra’no Mamirjonovna*
OʻZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING OʻQITILISHI........ 65-70

*Yunusxoʻjayev Habibulla Zafar gʻoʻli*
SHARQDA KUCHLI IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI TARIXI........ 71-75

*Нарбеков Абдикамил*
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ........ 76-80

*Alimova Gʻunchaxon Baxadirovna*
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA........ 81-85

*Jumanazarova Fotima*
XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI........ 68-93


## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ


*Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich*
PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW........ 94-100

*Hamrayev Amirzoda*
ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKILOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI ....................101-109

*Хайтбоева Нигора Бакмататовна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ ....................110-119

*Xalilov Qahramon Qurbonboyevich*
MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI....................120-132

*Махмудов Турсунпулат Давронович*
ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ ....................133-144

*Ishchanova Salomat*
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI....................145-150

*Мўйдинова Зилола Вохид қизи*
ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА "АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ҲАРАКАТИ" МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ....................151-158

*Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon*
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI ....................159-164

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Саидова Камола Усканбаевна*
ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ ....................165-173

*Omonturdiyev Orzu G'afforovich*
INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI ....................174-179

*Очилова Гузаль Араловна*
ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ....................180-185

*Nurmatova Umida Jalolidinovna*
MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI....................186-192

*Vafayeva Dilafruz Artikovna*
AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK....................193-198

*Karimov Zafarbek Ataboyevich*
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI....................199-202

*Bozorova Ro'zigul Sharofovna*
MEHRSIZLIK HODISASINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR ....................203-212

*Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna*
DINIY MANBALARDA IJTIMOIY HAMKORLIK O'OYALARI ....................213-218

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI ....................219-224

*Dehqonov Behzod Baxtityorovich*
YANGI OʻZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAGʻRIKENGLIK GʻOYALARINI OʻRNI VA AHAMIYATI ........................................225-230

*Abdullayeva Firuza Sharipovna*
NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI ..............................231-236

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING “AVORIF UL -MAORIF” ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN GʻOYALAR ........................................237-243

*Ибрагимов Солижон Эргашович*
АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” ТАҲДИДИ........................................244-251

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Qodirova Mukaddas Togʻayena*
BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI........................................252-257

*Abdullayev Ikramjon Xashimdjanovich*
DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE ........................................258-265

*Hamroyeva Sharifa Shukur qizi*
TARJIMADA MILLIY SOʻZLARNING BERILISHI (OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) ........................................266-271

*Olimova Gulfiza Muradullayevna*
BADIIY SAN’AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QOʻLLANILISHI ....................272-281

*Айниддинов Иқрориддин Шарифович*
АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ........................................282-287

*Turaeva Dilfuza Daminovna*
OʻZBEK TILIDA OBRAZLI SOʻZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..................................288-295

*Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna*
LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BOʻLISHI........................................296-305

*Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli*
LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........................................306-311

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA ........................................312-317

*Шамақсудова Саодат Хидоятовна*
МАССМЕДИА АСПЕКТИНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР........................................318-324

*Шатова Ирина Юрьевна*
ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........................................325-330

*Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna*
FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI ........................................331-335

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
KOʻP MAʻNOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI ........336-340

*Турниязова Шахноза Нигматовна*
МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР ........341-347

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI ........348-352

*Aminova Dilnoza Xikmatullayevna*
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY ........353-358

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ ........359-365

*Mamataliyev Toʻlqin Xushmamat oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDA MASOFAVIY TAʼLIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI ........366-378

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Saidov Jur'at Sodirovich*
MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........379-384

*Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,*
TEXNIK OLIY OʻQUV YURTLARIDA OOʻZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI ........385-390

*Таджиходжаева Эльвира Рашидовна*
ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ........391-396

*Тўрахонова Барно Турсунбой кизи*
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ ........397-406

*Ashurova Sitora Erkinovna*
USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION ........407-412

*Каримжонова Мунаввар Ибрагимовна*
ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида) ........413-421

*Xamirayev Rustam Abdirazakovich*
VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........422-426

*Хашимова Масуда Камилжановна*
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК ........427-435

*Бердикулова Насиба Эркинжоновна*
СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ........436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*
AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........................................443-448

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/8 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00–Фалсафа фанлари*

**Vafayeva Dilafruz Artikovna**
Buxoro davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi

## AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIY TAʼLIMOTIDA MAʼNAVIY BARKAMOLLIK

**Annotatsiya.** Maqolada Ahmad Yassaviy tasavvufiy taʼlimotidagi maʼnaviy barkamol inson, komillikka erishishning oʻziga xos yoʻllari ilmiy jihatdan tahlil qilindi . Tasavvuf taʼlimoti va unda ilgari surilgan gʻoyalar, ayniqsa, komil inson gʻoyasi tasavvuf taʼlimoti paydo boʻlgandan boshlab insonlarni qiziqtirib kelgan.
**Kalit soʻzlar:** tasavvuf, komil inson, maʼnaviy barkamollik, umumbashariy qadriyatlar, kashfiyotlar, taʼlimot, maʼnaviyat, qadriyat.

**Vafaeva Dilafruz Artikovna**
Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute

## SPIRITUAL PERFECTION IN THE SUFI TEACHINGS OF AHMED YASSAWI

**Abstract.** The article scientifically analyzes a spiritually perfect person and specific ways to achieve perfection in the Sufi teachings of Ahmed Yassawi. Sufism and its ideas, especially the idea of the perfect man, have interested people since the emergence of Sufism.
**Keywords:** tasavvuf, perfect person, spiritual perfection, universal human values, discoveries, teaching, spirituality, value.

**Вафаева Дилафруз Артиковна**
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

## ДУХОВНОЕ СОВЕРШЕНСТВО В СУФИЙСКИХ УЧЕНИЯХ АХМЕДА ЯССАВИ

**Аннотация.** В статье научно проанализированы духовно совершенный человек и конкретные пути достижения совершенства в суфийском учении Ахмеда Яссави. Суфизм и его идеи, особенно идея совершенного человека, интересовали людей с момента возникновения суфизма.
**Ключевые слова:** суфизм, совершенный человек, духовное совершенство, общечеловеческие ценности, открытия, учение, духовность, ценность.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N26

Biz ulugʻ tarixiy burilishlar davrida yashamoqdamiz. Jahon bizni, biz jahonni tanidik, dunyo hamjamiyatida oʻz oʻrnimiz, soʻzimiz bor, biz bilan hisoblashmoqdalar, bizga quloq solmoqdalar, tajribalarimizdan oʻrganmoqdalar. Quvonchlisi shuki, bugun Yangi Oʻzbekistonda dunyoni yangicha idrok etadigan, oʻz haq-huquqi uchun kurashadigan, oʻz taqdirini xalqi, vatani taqdiri bilan bir deb bilib, faoliyat koʻrsatayotgan Yangi avlod shakllanmoqda. Ular ajdodlar maʼnaviy merosini umumbashariy qadriyatlar, aqliy kashfiyotlar bilan barobar oʻzlashtirmoqdalar.

Tasavvuf ta’limoti va unda ilgari surilgan gʻoyalar, ayniqsa, komil inson gʻoyasi tasavvuf ta’limoti paydo boʻlgandan boshlab insonlarni qiziqtirib kelganlar. Bu ta’limotni koʻplab olimlar oʻrganib chiqqanlar, oʻz fikrlarini bildirganlar, uning rivojiga hissa qoʻshganlar. Ayniqsa, Oʻrta Osiyolik mutasavvuflar: Yassaviy, Najmiddin Kubro, Gʻazzoliy, Abduholiq Gʻijduvoniy, Aziziddin Nasafiy kabi koʻplab olimlar bu ta’limot rivojiga oʻz hissasini qoʻshganlar.

Hozirgi kunda koʻplab olimlar, shu jumladan, Najmiddin Komilovning «Tasavvuf», «Tasavvuf yoki komil inson axloqi» (1996), «Najmiddin Kubro» (1997) kabi asarlari, Nasafiyning «Xoja Ahmad YAssaviy» (1993), Sultonmurod Olimning «Naqshbandiy va Navoiy» (1996), I.Haqqulovning «Tasavvuf saboqlari» (Buxoro, 2000), X.Ergashevning «Yusuf Hamadoniy va Abduholiq Gʻijduvoniy – xojagon tariqati asoschilari» (2003), Hamidjon Homidiyning «Tasavvuf allomalari» kabi oʻnlab asarlarda tasavvuf, unda ilgari surilgan gʻoyalar, tasavvuf va komil inson muammosi, tasavvuf allomalarining hayoti va faoliyati kabi masalalar bayon etilgan boʻlsa, SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Tasavvuf haqida tasavvur» asarida tasavvufning islomiy ildizlari, sunniy tasavvuf, tasavvufda ruhiy tarbiya va ibodat masalalariga etarlicha toʻxtalgan va ularni atroflicha yoritib bergan. Umuman olganda, tasavvuf etarlicha oʻrganilgan va hozirgi kunda ham oʻrganishlar, uning ochilmagan qirralari ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va ilmiy asarlar yaratilmoqda.

Nasaviyning «Xoja Ahmad YAssaviy» risolasida ham islom dinida «soʻfiylik oqimi, darveshlar, paygʻambar zamonasidayoq vujudga kelgan» [1, 5-b.], - deyiladi.

«Soʻfiy» degan istilohning kelib chiqishi haqida 8 xil fikr mavjud:

- birinchisi, ba’zilar bu soʻz «saf» soʻzidan kelib chiqqan, chunki bunday musulmonlar ilohiy yoʻlga kirganlarni birinchi safida turuvchilardir, deganlar;

- ikkinchi boshqa birlari esa «soʻfiy» soʻzi «suffa» soʻzidan hosil boʻlgan, chunki suffa ahli paygʻambarimiz hayotlik chogʻlaridayoq tarki dunyo qilgan taqvodr dindorlar boʻlib, soʻfiylar shularga taqlid qilganlari uchun shunday nom kelib chiqqan, deb tushuntiradilar.

- uchinchi bir guruh kishilar «soʻfiy» soʻzi «safo» soʻzidan kelib chiqqan, chunki bu toifa kishilarning qalbi sidqu Safo quyoshidek porlab turadi, deganlar;

- toʻrtinchi, ba’zilar, «soʻfiy», «sufuh» soʻzidan hosil boʻlgan, chunki «sufuh» biron-bir narsaning xulosasi boʻlgani sababli ularni soʻfiy deb aytganlar;

- beshinchisi, ayrim ulamolar «soʻfiy» soʻzi «sof», ya’ni soflik, poklik, toza ruhiy kamolot mazmuniga ega, deb tushuntirganlar;

- Oltinchisi, ba’zilar bu soʻzni yunoncha «sofos» («donishmandlik») soʻzidan olingan, deganlar;

- Yettinchisi, olimlarning ba’zilari esa yunoncha «suf», faylasuf soʻzining oxirgi qismidan olingan, degan mulohaza ham bildiradilar;

- Sakkizinchisi, aksariyat olim va ulamolar «soʻfiy» soʻzi arabcha «suf» soʻzidan olingan, chunki bu soʻzning lugʻaviy ma’nosi jun va jundan toʻqilgan mato ma’nosini beradi, deb aytganlar.

Bular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e’tirof etilgan. U «muqaddima» asarida tasavvuf «suf» - «jun», «poʻstin» soʻzidan olingan boʻlishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan toʻqilgan kiyim yoki poʻstin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzlarini oʻzlarida namoyon etganlar.

Abulhakim SHar’iy Juzjoniy «Tasavvuf ta’limotining ildizlari» [2, 31-32-bb.] maqolasida tasavvuf soʻzi «… «soʻf», ya’ni kiyimni kiymoq, soʻfiy boʻlmoq va shuningdek, haq yoʻlidan yuruvchi boʻlmoq va darvishlar tariqasi ma’nolarida qoʻllaniladi.

Tasavvuf soʻzi bir istiloh (atama) sifatida uning payrovlari aqidasiga binoan nafs (ichki dunyo)ni pokizalash natijasida inson qalbida haqiqat yogʻdusi porlay boshlaydi» [2, 32-b.], - deydi.

Doktor Javod Nurbaxsh «soʻfiylar bihishti» degan kitobida, tasavvuf buyuk mashoyixlarning soʻzlariga tayangan holda, tasavvufni soʻz orqali ta’riflab boʻlmaydigan bir hol (holat) sifatida ifodalab, «soʻz bilan ifodalanuvchi narsa tasavvuf emas», deydi. Uning fikricha, tasavvuf tariqati haqida ba’zi bir buyuk zotlar tomonidan berilgan ta’riflar umumiy boʻlmay, tasavvufning faqat ba’zi bir xususiyatlarini ifodalab bergan. Agar uni mukammalroq ta’rif qiladigan boʻlsak, unda «tasavvuf ishq ozuqasi va faqat bir tomonga boqish yoʻli bilan haqiqat (xudoga olib boradigan tariqatdan iboratdir. Tasavvufning maqsadi haqiqatni faylasuflar singari mantiq va istiqlol orqali emas, balki kashfushuhud orqali koʻngil va vijdon koʻzi bilan bilib olishdir. SHuning uchun tasavvuf yurib borib koʻradigan yoʻldan iborat boʻlib, yotib eshitadigan narsa emas [3, 11-b.].

Tasavvufda insondagi jamiki xudbirliklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs qoʻyish jism ehtiyoji va nafs ta’masidan kelib chiqadi, deb oʻrganiladi. Komil inson boʻlish uchun avvalo jism va nafs ehtiyoji va ta’masini engish kerak. Insonni falokat botqogʻidan, tubanlik jaridan qutqarib, uni poklashning birdan-bir yoʻli nafsning ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Olloh muhabbatiga koʻngil bogʻlash darkor. Soʻfiylikda buni dunyo mohiyatini va oʻzligini, insoniylikni anglash yoʻli deb qaralgan. Oʻzligini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklarini oʻtkinchi ekanini anglaydi. Xoja Bahouddin aytadilar: «Oʻz nafsining yomonligini tanish oʻzligini tanishdir» [4, 25-b.].

Tasavvuf - odamlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini erga urmaslikka chorlovchi, barcha musulmonlarning teng boʻlib, har kim oʻzining halol mehnati bilan kun kechirishini, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikni, ijtimoiy adolat qoidalariga rioya etishni targʻib etuvchi ta’limotdir. Bu ta’limot namoyondalari bunday maqsadga adolatli jamiyat qurib, yaxshi, odil podshohga ega boʻlish bilangina emas, balki Allohga vujudan berilish, uning rizosiga yetishish orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar [5, 48-b.].

Tasavvufda Olloh rahmatiga yetishishning, inson ma’naviy kamolot yoʻlining toʻrt bosqichi mavjudligi bayon etiladi. Bular:

SHariat – diniy qonun-qoidalar va marosimlarni «Qur’on» Xadislardagi axloqiy ilohiy koʻrsatmalarni oʻzlashtirish, bajarish, ibodat qilishdir.

SHariat talablari qoidalarini bajarmasdan tariqatga oʻtish mumkin emas.

Tariqat – er yuzidagi lazzatlardan voz kechib, nafsni tiyib, xilvatda yashab, faqat xudo haqida oʻylash uni qalbdan sevish.

Ma’rifat -butun borliqning asosi xudo ekanini bilish, shu tariqa xudoga etish demakdir. Jamiki narsalar xudoning zuxurotidan iborat,odam Olloh quyoshining zarrasi deyiladi [6, 78-b.].

Haqiqat - oʻzining Xudoning dargohiga erishgan, vasliga etgan, hatto u bilan qoʻshilib ketgan deb bilishdir.

Tasavvufning bu yoʻli oʻzining asosiy mohiyati jihatidan diniy e’tiqod va iymonli dunyoviy muammolar bilan bogʻlash, ularni adolatli hal etishga hissa qoʻshishga kishilarni undash bilan ham ahamiyatlidir.

Ahmad Yassaviy (1041-11650) 1041 yilda Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga keladi. Rivoyatlarga koʻra, YAssaviy 63 yoshga etgach,er ostida hujra yasatib «chilla»ga kirgan, qolgan umrini toat – ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yolgʻiz oʻtkazgan. Bir rivoyatga koʻra, u 125 yil, ayrim manbalarda esa 133 yil umr koʻrgan, deyiladi. YAssaviy madaniyatimizning tarixida ilk turkiy zabon shoir sifatida ham mashhurdir.

U nafs bandalariga qarata:

«Nafsim meni yoʻldan urib xor ayladi,

Termultirib xaloyiqqa zor ayladi», deb nafs bandalarini tanqid etadi. Nafs insondagi butunlikni, imonni sindiradi, ma’naviy jihatdan jarlikka qulatadi. Bu gʻoyalar bizning hozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun gʻoyat muhim.

YAssaviy tariqatining barcha aqidalari A.Yassaviyning asosiy asari boʻlgan «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. Bu asarda YAssaviya ta’limotidagi poklik, halollik, toʻgʻrilik, mehr-shafqat, oʻz qoʻl kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yoʻlida insonni ham botinan, ham zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilgʻor umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Yassaviy ta’limotida insonning oʻzligini bilib olishi barcha masalalardan ustun qoʻyiladi. Buning boisi shundaki, Yassaviy ta’biricha, oʻzini bilsa erdi Xaqni biladi, Xudodan qoʻrqadi-yu, insofga keladi. Lekin Xaqqa yetishish oson emas, uning oʻziga xos qiyinchiliklari, sir-asrori mavjud.

Yassaviy tanlagagan yoʻl oʻziga xosdir. Bu oʻziga xoslik yoʻli-insonning oʻz gunohlarini, axloqiy nuqson va unsurlarini, jumladan, shaxsiyatparastlik, tamagirlik, boriga qanoat qilmaslik kabi illatlarni ayovsiz ochib tashlash va ulardan xalos boʻlish kurashidir. Bu yoʻl Yassaviy fikricha, yagona toʻgʻri yoʻl boʻlib, u aslida Xudo yoʻlidir. Yassaviy tariqatining asosiy maqsadi: Ollohni tanishga, Ollohning yaqini boʻlishga da’vat etish, odamni xudoning eng aziz bandasi sifatida e’zozlash, adolatsizlikni qoralash, bu dunyoning dogʻlarini insonga yuqtirmaslikdan iborat. YAssaviy inson oʻzining azaliy pokligini saqlash uchun – bu dunyodan yuz oʻgirishi: umrini odamlardan uzoqda, yolgʻizlikda: toat-ibodatda oʻtkazish - Ollohga yaqin boʻlishning, oʻziga u dunyoda saodat ta’min etishning shartlaridan biri deb biladi.

Ahmad Yassaviy va boshqa soʻfiylar nazarida, bu dunyo-omonat, muvaqqat manzil. Haqiqiy, asl vatan – narigi dunyoda, Ollohning huzurida. SHoir va olim Mirzo Kenjabek bu haqda shunday deb yozadi: «…Tasavvufda oʻlim - asl vatan ostonasidir. Hazrati shayx Hasan Basriy aytadilar: «Qabr – dunyo oxiratining oxiri va oxirat hayotining boshidir». Koʻryapmizki, ikki xil umr – dunyodagisi ham, oxiratdagisi ham «hayot» deb e’tirof etilyapti. Hayot boʻlgach, demak, vatan bor. Zero, vatan bor joyda hayot boʻladi.

Tasavvuf ilmining sultoni Ahmad YAssaviy (vafoti taxminan 1166-1167 yillar) «Devoni hikmat» she’rlar toʻplamida oʻzining Ollohga boʻlgan ishq-muhabbatini kuyladi. Uningcha, «Ishqsizlarning ham joni yoʻq, ham iymoni» [1, 47-b.]. Oʻz fikrlarida Ollohga ishonmaydiganlar hayotning goʻzalligini, bu dunèning mohiyatini tushunib etmasligini aytib oʻtadi. YAssaviy ilohiy ishqdan mahrum shaxslarga shunday da’vat qilgan:

Ey bexabar, ishq ahlidin bayon surma,

Dard istagil, ishq dardiga darmon surma.

Oshiq boʻlsang, zohidlardin nishon surma, Markaziy Osiyo falsafiy tafakkur taraqqiyotida tasavvuf taʼlimotining oʻrni va axamiyati

Bu yoʻllarda oshiq oʻlsa tovoni yoʻq [1, 8-b.].

Bu erda YAssaviy ilmga qiziqmaydiganlarni ilmga chorlaydi, ularni haq yoʻldan borishga chaqiradi. YAssaviy hikmatlari oʻzining chuqur va sermazmun, goʻzal va nafosat dunèsi bilan bogʻlanib ketganki, bu uning buyuk shaxs ekanligini koʻrsatib turadi. YAssaviy sheʼrlarida Ollohni sevish va uning nimalarga qodirligini bilish uchun xalqni toʻgʻri yoʻlga chorlaydi va quyidagi misralarni keltiradi:

Chin oshiqlar doim tirik oʻlgan emish,
Arvohlari er ostiga kirgan emish,
Zohid, obid bu maʼnoni ilgan emish,
Chin oshiqlar xaloyiqni Xizri boʻlgay [1, 13-b.].

Bu toʻrtlikdan koʻrinib turibdiki, insonning qanchalik Ollohni bila olishi, uning xalqni ichida obroʻ-eʼtibori va eng pok, sofdil, kamtarin, ajoyib fazilatlari yaratganning qudratidir. Ollohni sevgan inson doimo baxtièr boʻladi.

Ahmad Yassaviyning axloqiy-estetik gʻoyalari hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, ularni oʻrganish va èsh avlodni estetik ruhda tarbiyalashda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Ahmad Yassaviyning shogirdi Sulaymon Boqirgʻoniy (vafoti 1186 yil) hayotiga oid maʼlumotlar turli afsona va rivoyatlar bilan bogʻlanib ketgan. Uni «Hakim ota» deb ham ataganlar. Boqirgʻoniy «Bibi Maryam kitobi», Markaziy Osiyo falsafiy tafakkur taraqqiyotida tasavvuf taʼlimotining oʻrni muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi - inson haqidagi ilmdir. Inson qalbiga sayqal berish ilmi. U inson odobini - yaʼni maʼnaviyatini yanada kuchaytirgan butun islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamladi. Shu tariqa tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqdi. Tariqat - bu komil insonlikka qanday qilib erishish mumkinligini koʻrsatuvchi yoʻldir. Har bir tariqat asoschisi, albatta, oʻz yoʻlini ishlab chiqqan va bu yoʻlni targʻib etgan, oʻziga tarafdorlarini toʻplagan.

## Adabiyotlar/Литература/ References:


1. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Oʻ.Gʻulom nashriyoti, 1993, 5-bet.
2. Abdulhakim SHarʼiy Juzjoniy. Tasavvuf taʼlimotining ildizlari.//Muloqot, 1995, 1-2-soni, 31-32-betlar.
3. Doktor Javod Nurbaxsh. Soʻfiylar bihishti. – London, 1362 hijriy yil, 11-bet.
4. Otamurodov S., Ramatov J., Husanov S. Maʼnaviyat asoslari. Maʼruzalar matni. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2000.
5. Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent, 1997, 48-bet.
6. Nosirxoʻjaev S., Lafasov M., Zaripov M. Maʼnaviyat asoslari (darslik). – Toshkent: SHarq NMAK, 2005, 78-bet.
7. Masharipova G.K. Tasavvuf tariqatlari va ularning oʻzaro aloqadorligi. // “Markaziy Osiyo falsafiy tafakkur taraqqiyotida tasavvuf taʼlimotining oʻrni va ahamiyati” mavzusidagi

Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. Buxoro muhandislik texnologiya instituti. 2020 yil may. - B.21-23.
8. YUsupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 1997, 76-bet.
9. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent, YOzuvchi, 1996, 29-bet.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3SI8Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).